

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi bortkuzatuvchilarni ishga taklif qiladi

2023 5 July

Agar siz doimiy izlanishda bo'lib, qiziqarli va barqaror ish qidirayotgan bo'lsangiz, biz eng romantik kasb vakillaridan biri bo'lishni taklif qilamiz. Uzbekistan Airways sizning ta'limingizga sarmoya kiritadi va butun dunyo bo'ylab parvozlarning keng geografiyasini kafolatlaydi.

O'qish uchun tanlovda ishtirok etishni xohlagan nomzodlar anketa to'ldirishlari hamda skaner qilingan nuxalarini tayyorlashlari va ca.school@uzairways.com elektron manziliga yuborishlari zarur. Nomzodlarning aviakompaniya xodimlari bilan aloqalari ta'minlanmagan. Taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish ijobiy natija bergen taqdirda nomzod telefon orqali suhbatga taklif qilinadi.

Nomzod taqdim etishi zarur bo'lgan hujjatlar:

- O'zbekiston Respublikasi fuqaro pasporti;
- Foto 4x6
- Ish yoki o'qish joyidan ma'lumotnoma;
- Oliy yoki o'rta-maxsus ma'lumot diplomi (chet el diplomi bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida nostrifikatsiya qilingan bo'lishi kerak);
- Harbiy guvohnoma (agar bo'lsa);
- Yashash joyidan ma'lumotnoma;
- Anketa ([yuklab oling](#)).

Nomzodga qo'yiladigan talablar:

- Nomzod O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi va tugallangan oliy yoki o'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'lishi kerak;
- Yoshi 18dan 27gacha (27 yoshga to'lganlar qabul qilinmaydi);
- Qizlar uchun: bo'yi 162 dan 175 santimetrgacha, kiyim o'lchami 36-40 (Yevropa o'lchovida);
- Normal tana massasi indeksi Ketle bo'yicha (18,5-24,9);

- Qaddi-qomati kelishgan va nozik, yurishda nuqsonlar bo'lmasligi kerak;
- Orasta soch turmagi yoki shakli, erta kallik belgilari, kesilgan joylar bo'Imagan, sochlар tabiiy rangga ega bo'lisi kerak (uzun sochlар kiyimning yoqasiga tegmasligi uchun orasta turmakda bo'lisi kerak);
- Ko'rindigan nuqsonlar va assimetriyasiz yuz, teri toza bo'lisi kerak, yuz ifodalari va mimikalar ijobiy taassurot qoldirishi, muloqot qilish uchun qulay bo'lisi va har bir vaziyatda zarur bo'lgan his-tuyg'ularni ifodalashi kerak (tushunish, do'stona munosabat, g'amxo'rlik, hamdardlik);
- Lablar Fillerlardan holi tabiiy shakl va hajmda bo'lisi kerak;
- Tishlar tekis, toza, to'g'ri tishlash bilan, old tishlarda oq yoki sariq tish koronkalari bo'lmasligi lozim;
- Qo'llar parvarish qilingan bo'lisi zarur (manikyur bilan). Qo'Ining shakli to'g'ri va mutanosib bo'lisi darkor, barmoqlari mavjud bo'Imaganlar (falanjlar) qabul qilinishi mumkin emas;
- Tananing ochiq joylarida chandiqlar, dog'lari va tabiiy belgilari, katta hollar, kuyish izlari va tatuirovkalar, pirsinglar mavjud bo'lsa nomzod qabul qilinmaydi;
- Qaddi-qomati kelishgan bo'lisi lozim.

Har qanday sababga ko'ra o'quv dasturini o'zlashtira olmagan, dars qoldirayotgan, intizomni buzgan, qo'pollik qilgan, tashqi ko'rinishi to'gri kelmaydigan nomzodlar bilan mehnat shartnomasi bekor qilinadi.

O'quv mashg'ulotlari Toshkent xalqaro aeroportidan uncha uzoqda bo'Imagan "Uzbekistan Training Center" MCHJda bo'lib o'tadi.